O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori v.v.b.
Z.Ya.Raxmanov
«____» _____2026- yil

«MA’QULLANDI»
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK raisi
A.T. Yusupov
«____» _____2026 -yil

19.00.06 – «Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi» ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon
D A S T U R I

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026- yil «____»_____ ____-sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni hamda psixologiya fanini rivojlantirishga oid mavjud me’yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo‘lib, psixologik-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi – yosh va pedagogik psixologiya, rivojlanish psixologiyasi ixtisosligi bo‘yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi, rivojlanishi tarixini, umumiy kontseptsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy hamda amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko‘rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar: psixol.f.d., prof. N.B.Atabayeva
psixol.f.d., prof. D.S.Karshiyeva

Taqrizchi: psixol.f.d., prof. S.N.Jo‘rayeva
psixol.f.d., dots. Sh.Sh.Rustamov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda shaxsning ontogenetik taraqqiyoti va uning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, shaxsdagi inqirozlarni yoshga oid jihatlarini tahlil qilish dolzarb ahamiyatga egadir.

Yosh va pedagogik psixologiya, rivojlanish psixologiyasi ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon qabul qilishda talabgorlarning qonuniyatlari, omillari davrlari, mexanizmlari haqidagi tasavvurlari, fan sohalari oldidagi vazifalar va asosiy muammolar to‘g‘risidagi tushunchalarini tekshirish yuzasidan imtihon o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Bunda ixtisoslik tarkibidagi ikki fan sohasi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda talabgorlar bilimining tekshirilishi rejalashtiriladi.

Dastur yosh va pedagogik psixologiya, rivojlanish psixologiyasi borasidagi qarashlarning o‘zaro bog‘liq jihatlarini bayon etishga mo‘ljallangan. Shaxs ontogenetik taraqqiyoti borasidagi fikr rivojlanishini izchil o‘rganish bo‘lg‘usi mutaxassislarga hozirgi davrda o‘tmishning ilg‘or psixologiyasini uzviy davomi ekanligini ko‘rsatish kelajak psixologik fikrlar taraqqiyoti yo‘nalishlarini anglab olishga yordam beradi.

“Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” ixtisosligi bo‘yicha dasturning maqsad va vazifalari: talabgorlarning rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya bo‘yicha bilimlarning nazariy asoslarini, rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, yosh taraqqiyot qonuniyatlarini va pedagogik psixologiyani qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish, pedagogik psixologiyaning asosiy nazariyalariga nisbatan uslubiy yondoshuvlarni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini tekshirishdan iborat.

“Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” fanidan bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar:

mazkur ixtisoslikni o‘rganish jarayonida quyidagi tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur:

- yosh davrlari psixologiyasi fanining tadqiqot sohasi, metodlari, tarmoqlari;
- yosh davrlari psixologiyasiga oid ilmiy bilimlar tarixiy taraqqiyoti;
- yosh davrlarining turli xil ilmiy ta’limotlar bo‘yicha tasnifi;
- yosh davrlarining turli bosqichlari uchun xos psixofiziologik va psixologik xususiyatlari;
- yosh davrlari bilan bog‘liq ravishda psixik jarayon, holat va xususiyatlardagi dinamik o‘zgarishlar.
- ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq psixologik muammolari;
- tarbiya jarayonini tashkil etish va ro‘yobga chiqarishda psixologik qonuniyatlarning ahamiyati;
- pedagog shaxsi va faoliyatining psixologik jihatlari hamda muammolari;
- pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro munosabati bilan bog‘liq psixologik muammolar;
- pedagogni psixoprofilaktik va psixokorrektsion faoliyatga tayyorlashning imkoniyatlari yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Talabgor “Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” fanini o‘rganish davomida rivojlanish psixologiyasiga bog‘liq qarashlarni, shaxsning ontogenetik va filogenetik taraqqiyotini, shaxsdagi yoshga oid inqirozlarni, pedagogik psixologiyadagi ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi psixologiyasiga oid qarashlarni tahlil qilish, ilmiy-amaliy farazlarni muayyan kontseptual qarashlar asosida tizimlashtira olishi hamda amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajarish ko‘nikmasini namoyon eta olishlari zarur.

Talabgorning Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi ixtisosligidan o‘rganilishi zarur bo‘lgan minimum bilimlar mazmuni.

1. Yosh davrlari psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari; yosh davrlari psixologiyasi va rivojlanish psixologiyasi o‘rtasidagi munosabat; yosh davrlari psixologiyasining asosiy fundamental muammolari, uning tarmoqlari.

2. Prenatal davrning trimestrlarga ajratilishi, prenatal va perinatal davrda psixik rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari; tug‘ilish davri inqirozi.

3. Ta’lim psixik taraqqiyot omili sifatida “taraqqiyotning eng yaqin zonasi” haqidagi L.S.Vigotskiy g‘oyasi; ta’lim va inson shaxsining o‘zaro ta’siri.

4. Yosh davrlari psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda qo‘llanuvchi empirik va tashkiliy metodlar; yosh davrlari psixologiyasi muammolarini o‘rganishda psixogenetik metodlar qo‘llanishi.

5. Chaqaloqlik va go‘daklik davrida bilish jarayonlari taraqqiyotiga xos xususiyatlari; “tirilish kompleksi” va ijtimoiy tabassum; chaqaloqlik va go‘daklik davrida kattalar bilan muloqot xususiyatlari.

6. O‘quvchilar dunyoqarashi shakllanishiga xos xususiyatlar; ta’lim jarayonida o‘quvchilarning xato umumlashtirish holatlari; ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishda xato umumlashtirishlarning oldini olish va bartaraf etish muammosi.

7. Sharq mutafakkirlari va o‘rta asr Yevropa ma’rifatparvarlarining qarashlarida yosh davrlari psixologiyasiga oid fikrlari; yosh davrlari psixologiyasining mustaqil fan sohasi bo‘lib shakllanish tarixi.

8. 1 yosh inqirozi haqida tushuncha; ilk bolalik davrida predmetli-manipulyativ faoliyat; ilk bolalik nutqning rivojlanishi uchun sentiziv davr sifatida; ilk bolalik davrida o‘zini-o‘zi anglashning shakllanishi.

9. Rivojlantiruvchi ta’lim haqida tushuncha; o‘qitishning yangicha usullari va ta’lim oluvchilarning aqliy qobiliyati; muammoli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari.

10. Psixik taraqqiyotda koppensatsiya, geteroxronlik, integratsiya, kumulyatsiya, senzitivlik hodisalarining namoyon bo‘lishi; psixik taraqqiyotda muhit va irsiyat munosabati; psixik taraqqiyotda shaxsiy faollikning ahamiyati.

11. O‘yin maktabgacha yosh davrida Yetakchi faoliyat sifatida; maktabgacha yosh davrida kognitiv va emotsional sohalar taraqqiyoti, shaxs sifatlari rivojlanishiga xos xususiyatlar; shaxsning “birinchi tug‘ilishi” muammosi.

12. O‘quv materiali va topshiriqlarini taqdim etishda individual yondoshish muammolari; o‘quv faoliyatini nazorat qilish va baholashda individual yondoshish mummolari.

13. Bola psixik taraqqiyotining ijtimoiy vaziyat masalasi; Yetakchi faoliyatning psixik taraqqiyot uchun ahamiyati; psixik taraqqiyot davomida yangi tuzulmalar shakllanishi muammosi; psixologik inqiroz haqida umumiy tushuncha.

14. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv va emotsionl soha taraqqiyotiga xos xususiyatlar; kichik maktab yoshi davrida xulq-atvor va o‘quv faoliyati motivatsyasi muammosi; kichik maktab yoshida “Men” kontseptsiya xususiyatlari.

15. Tarbiya haqida tushuncha; o‘quvchi axloqiy rivojlanishning qonuniyatlari; og‘zaki tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish muammosi; o‘quvchiga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishda shaxsiy namunaning roli; tarbiyaviy ta’sirda rag‘bat va jazo muammosi.

16. Psixologik inqiroz haqida tushuncha; inqiroz davrlari va asosiy sabablari; psixologik inqirozlar uchun xos umumiy xususiyatlar.

17. O‘smirlik davrining pubertat davr sifatidagi tavsifi; o‘smirlik davrida bilish sohasi va affektiv soha taraqqiyotiga xos xususiyatlar; o‘smirlik davrida shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari; o‘smirlik davrida deviant xulq muammosi.

18. Jamoa haqida umumiy tushuncha; referent guruh va submadaniyat haqida tushuncha; guruhning shaxsga ta’sirida individual xususiyatlarning roli; jamoaning tarbiyaviy imkoniyatlari va ularni oshirish uchun jamoani shakllantirish usullari.

19. Konfrontatsiya psixik rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida talqin etilishi; psixik taraqqiyotni davrlashtirish – oral bosqich, anal bosqich, fallik bosqich, latent bosqich, genital bosqich.

20. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv faoliyati xususiyatlari; ilk o‘spirinlik davrida affektiv va motivatsion sohalar, shaxslararo munosabatlar tizimi hamda “Men” kontseptsiya taraqqiyotiga xos xususiyatlar; ilk o‘spirinlikda do‘stlik va muhabbat.

21. Mehnat faoliyatining mohiyati; mehnat faoliyatining tarbiyaviy ta’sir olishiga aylanishi uchun bajarilishi lozim bo‘lgan shartlar; ijtimoiy foydali mehnatning tarbiyaviy ahamiyati.

22. J.Piajening inson aqliy taraqqiyoti haqidagi qarashlari; aqliy taraqqiyot bosqichlari; egotsentrizm va Piaje fenomenlarining mohiyati.

23. Yetuklikning dastlabki bosqichida kognitiv, affektiv, motivatsion sohalar taraqqiyoti xususiyatlari; ilk Yetuklik davrida xulq-atvor va “Men” kontseptsiya xususiyatlari; ilk Yetuklik davrida professionalizmning rivojlanishi.

24. O‘qituvchi shaxsiga, intellektual darajasi, madaniyatiga qo‘yiladigan asosiy talablar; pedagog individualligi; o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladign vaziyat bilan bog‘liq talabalar.

25. E.Eriksonning ijtimoiy idenfikatsiya haqidagi nazariy qarashlari; psixik taraqqiyotining epigenetik kontseptsiyasi bo‘yicha yosh davrlari tasnifi: inqirozli davrlar va ularda psixik rivojlanishning normal va anomal yo‘nalishlari.

26. Yetuklikning o‘rta bosqichida kognitiv, affektiv va motivatsion sohalardagi taraqqiyot xususiyatlari: o‘rta Yetuklik davrida “Men” kontseptsiya, ijtimoiy xulq-atvor, kasbiy faoliyat, yaqin insonlar munosabat va hordiq xususiyatlari.

27. O‘qituvchi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining asosiy guruhlari; o‘qituvchining shaxs bilan bog‘liq, didaktik va tashkiliy kommunikativ qobiliyatlari.

28. Maktabga intellektual, emotsional va ijtimoiy tayyorlikning asosiy mezonlari; maktabga motivatsion tayyorlik ahamiyati; o‘quv pozitsiyasini o‘zlashtirish muammosi.

29. Keksalik davrida bilish faoliyati xususiyatlari; keksalik davrida intellektual funktsiyalar susayishining sabablari; keksalik davrida affektiv va motivatsion sohalardagi o‘zgarishlar; keksalikda ijtimoiy xulqa-atvor xususiyatlari; o‘lim va keksalikda unga munosabat muammosi.

30. Pedagogik muloqot ijodiy jarayon sifatida; kasbiy-pedagogika muammosi; kasbiy-pedagogik muloqot uslubi; oilada pedagogik muloqot muammosi.

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi ixtisosligi bo‘yicha imtihon savollari:

1.Yosh davrlari psixologiyasi fanining tadqiqot sohasi, asosiy muammolari, yirik tamoqlarini ochib bering.

2.Prenatal davrda psixofiziologik rivojlanish xususiyatlarini yoritib bering.

3.Ta’lim va psixik taraqqiyotning o‘zaro munosabatini tahlil qiling.

4. Tarbiya psixologiyasini mohiyatini ochib bering.

5.Yosh davrlari psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda qo‘llanuvchi metodlarni qiyosiy tahlil qilib, amalda qo‘llanilishini ko‘rsating.

6.Chaqaloqlik va go‘daklik davrda psixik rivojlanish xususiyatlarini taqqoslang.

7.O‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish muammosini ochib bering.

8.Kuzatish metodining ahamiyatini tushuntirib bering.

9.Yosh davrlari psixologiyasiga oid ilmiy qarashlarning tarixiy taraqqiyotini qiyosiy tahlil qiling.

10. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlarini yoritib bering.

11. Yosh davrlari psixologiyasi fanining tadqiqot sohasi, asosiy muammolari, yirik tarmoqlarini tahlil qiling.

12. O‘quvchilarda ta’lim jarayonida faol, mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish muammosini yoritib bering.

13. Ilk bolalik davrida o‘yin faoliyatini tushuntirib bering

14. Prenatal davrda psixofiziologik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qiling.

15. Tarbiyaviy ta’sirning psixologik asoslarini tahlil qiling.

16. K.Byuler bo‘yicha rivojlanishning uch bosqichli nazariyasini tahlil qilib bering.

17. Ta’lim va psixik taraqqiyotning o‘zaro munosabatini tahlil qiling.

18. Chaqaloqlik va go‘daklik davrda psixik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qiling.

19. Psixogerontologiyaning mazmun mohiyatini tushuntirib bering

20. Tarbiya psixologiyasining mazmun mohiyatini tushuntirib bering

21. O‘smirlik davrida addiksiyaning kelib chiqish sabablarini tushuntirib bering.

22. E.Erikson ta’limoti bo‘yicha yosh davrlarini tasniflab bering.

23. Yosh davrlari psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda qo‘llanuvchi metodlarni tushuntirib bering.

24. Tarbiya jarayonida jamoaning roli va ahamiyatini tasvirlab bering.

25.Freydizm ta’limotida psixik taraqqiyot talqinini tushuntirib bering.

26.O‘quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish muammosini yoritib bering.

27. Talabalik davri psixologiyasini tushuntirib bering

28. Keksalik davrida psixik faoliyat xususiyatlarini tahlil qilib bering

29. Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilib bering.

30. Pedagogik qobiliyatlar va ularning rivojlanish muammosini tahlil qilib bering.

31.A.Buzmanning rivojlanish nazariyasini tushuntirib bering.

32. Psixik taraqqiyotning asosiy mexanizmlarini yoritib bering .

33. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar va o‘qituvchi o‘zini-o‘zi takomillashtirishning psixologik muammolarini tahlil qilib bering

34. Rivojlanishni tushuntirishning biogenetik yo‘nalishini tushuntirib bering (S.Xoll konsepsiyasi).

35. Kuzatish metodining ahamiyatini tasvirlab bering.

36. Ilk o‘spirinlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlarini tushuntirib bering.

37. Akseleratsiya nazariyalarining mazmun mohiyatini tushuntirib bering.

38. Yosh davrlari psixologiyasiga oid ilmiy qarashlarning tarixiy taraqqiyotini ko‘rsating.

39. Pedagogik muloqot psixologiyasining mazmuni tushuntirib bering.

40. Rivojlanish borasidagi tadqiqotlarning normativ yo‘nalishini tushuntirib bering (A.Gezell, L.Termen nazariyasi)

41. Keksalik davridagi psixologik inqirozni tahlil qilib bering .

42. Keksayish va keksalik davridagi psixologik xavotir tahlil qilib bering .

43. Pedagogning didaktik qobiliyatlarini tushuntiring

44. Ilk o‘spirinlik davrida tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib bering.

45. Psixik taraqqiyotda psixologik inqiroz muammosini tahlil qiling.

46. Pedagogik psixologiya fanining metodlarini tahlil qiling.

47. O‘spirinlik davrida ijtimoiy faollikning mazmun mohiyatini tasvirlab bering.

48. Maktabda psixologik tayyorlik muammosini nazariy tahlil qiling.

49. Pedagogik qobiliyatlar psixologiyasini tahlil qiling.

50. Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qiling.

51. “Men siymosi” va barqaror o‘zini o‘zi anglashning shakllanish jarayonini tahlil qiling.

52. Pedagogdagi ijtimoiy persepsiyani tahlil qiling.

53. Talabalik davrida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning mazmun mohiyatini tasvirlab bering.

54. Yetuklik davridagi inqirozni psixologik jihatdan tahlil qilib bering.

55. Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasini tushuntirib bering. (Zankov, Davidov, Elkonin).

56. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilib bering.

57. O‘spirinlik davrida shaxs rivojlanish xususiyatlarini tushuntirib bering.

58. Pedagogning professiogrammasini tushuntirib bering.

59. O‘spirinlik davrida inqiroz muammosini yoritib bering.

60. Keksa inson shaxsining xususiyatlarini tahlil qilib bering.

61. Muammoli ta’limda o‘quvchilarning psixik rivojlanishini tahlil qiling.

62. Psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari va omillarini ilmiy asoslab bering.

63. Yosh davrlari jihatidan E.G‘oziyevning psixologik qarashlarini yoritib bering.

64. Pedagogning umuminsoniy fazilatlarini tahlil qilib bering.

65. X.Vernerning ontogenetik konsepsiyasini tushuntirib bering.

66. Keksalik davrida emotsional sohaning xususiyatini tahlil qiling.

67. Pedagogik psixologiya fanining O‘zbekistonda rivojlanishi jarayonlarini tahlil qilib bering.

68. Ta’lim jarayonida individual yondoshish muammosini yoritib bering.
69. Yetuklik davrida mas’uliyat va ijtimoiy faollik sohasining kengayishini tahlil qiling.
67.Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. (Zankov, Davidov, Elkonin).
68.Muammoli ta’limda o‘quvchilarning psixik rivojlanishi.
69.Pedagogning professiogrammasi.
70. Akseleratsiya nazariyalari.

Talabgor javoblarini baxolash mezonlari:

Baholash mezonlari	Maks. ball
1. Fanni bilish darajasi	**30**
Asosiy nazariy bilimlar	15
Ixtisoslik bo‘yicha bilimlar	15
2. Tanqidiy fikrlash va tahlil	**25**
G‘oyalarni umumlashtira olish	13
Mantiqiy fikr va dalil keltirish	12
3. Nutq va taqdimot madaniyati	**20**
Tuzilishi va izchillik	10
Til va ifoda aniqligi	10
4. Savollarga javob berish sifati	**25**
Mazmun va aniqlik	15
Moslashuvchanlik va mulohaza	5
Xotirjamlik, professional yondashuv	5
UMUMIY BALL	**100**

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – Toshkent Ozbekiston, 2020
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, «O‘zbekiston», 2016 yil, 56 bet.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, «O‘zbekiston», 2017 yil, 48 bet.
4. Авдулова Т.П. Возрастная психология: Учебное пособие для студентов учреждений высшего профессионального образования / Т.Д. Марцинковская, Т.П. Авдулова; Под ред. Т.Д. Марцинковская. - М.: ИЦ Академия, 2011. - 336 с.
5. Батюта М.Б. Возрастная психология: Учебное пособие / М.Б. Батюта, Т.Н. Князева. - М.: Логос, 2013. - 306 с.
6. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. - Монография. СПб.: Питер, 2008. - 364 с.
7. Болотова А.К., Молчанова О.Н. Психология развития и возрастная психология. М.: Высшая Школа Экономики (ВШЭ), 2012. – 840 с.
8. Дарвиш О.Б. Возрастная психология: Учебное пособие / О.Б. Дарвиш; Под ред. В.Е. Клочко. - М.: КДУ, Владос-Пр., 2013. - 264 с.
9. Мандель Б.Р. Возрастная психология: Учебное пособие / Б.Р. Мандель. - М.: Вузовский учебник, НИЦ ИНФРА-М, 2013. - 352 с.
10. Марцинковская Т.Д. (ред.) Психология развития. 3-е изд. - М.: Академия, 2007. - 528 с.
11. Мухина В.С. Возрастная психология. Феноменология развития. Учебник для студ. высш. учеб. заведений. - 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Академия, 2006. - 608 с.
12. Нишанова З.Т. ва бошқалар. Ривожланиш психологияси. Педагогик психология. - Т.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2018. -600 б.

13. Нишанова З.Т. ва бошқалар. Тараққиёт ва дифференциал психология. -Т.: Инновация -Зиё. 2020. -416 б.
14. Обухова Л.Ф. Возрастная психология: Учебник для бакалавров / Л.Ф. Обухова. - М.: Юрайт, 2013. - 460 с.
15. Психология. Учебник для гуманитарных вузов/ Под общ. ред. В.Н. Дружинина. - СПб.: Питер, 2002.- 656 с.
16. Психология: Учебник/ В.М.Аллахвердов, С.И.Богданова и др., Отв, ред. А.А.Крылов.-2-е изд., перераб. и доп. –М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004.- 752 с.
17. Самыгин С.И. Психология развития, возрастная психология для студентов вузов / С.И. Самыгин; Под общ. ред. Л.И. Щербакова. - Рн/Д: Феникс, 2013. - 220 с.
18. Сапогова Е.Е. Экзистенциальная психология взрослости. - М.: Смысл, 2013. — 767 с.
19. Солдатова Е.Л. Структура и динамика нормативного кризиса перехода к взрослости. Монография. - Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2007. - 267 с.
20. Хилько М.Е. Возрастная психология: Конспект лекций / М.Е. Хилько, М.С. Ткачева. - М.: Юрайт, ИД Юрайт, 2010. - 194 с.
21. Хилько М.Е. Возрастная психология: Краткий курс лекций / М.Е. Хилько, М.С. Ткачева. - М.: Юрайт, 2013. - 200 с.
22. Хухлаева, О.В. Психология развития и возрастная психология: Учебник для бакалавров / О.В. Хухлаева, Е.В. Зыков, Г.В. Бубнова. - М.: Юрайт, 2013. - 367 с.
23. Шаповаленко И.В. Психология развития и возрастная психология: Учебник для бакалавров / И.В. Шаповаленко. - М.: Юрайт, 2013. - 567 с.
24. Эфимкина Р.П. «Психология развития». Методические указания. Новосибирск. Новосиб. гос. ун.-т, 2004.
25. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. -Т.: Ношир. 2010.- 360 б.
26. Nazarov A.M. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. - Buxoro. “Durdona” nashriyoti. 2021. – 208 б.
27. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. – T. TDPU. 2022. 321-b.
28. Rahimova I.I., Ziyavitdinova U.Z., Kamalova Z.X. Rivojlanish psixologiyasi va differensial psixologiya. Darslik. – T.: “Ma’rifat”, 2024. 240 bet.
29. Ғозиев Э. Онтогенез психологияси. T. 2024. 234-b.